

INGLIZ FRAZELOGIYASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

L. Ibragimova ¹, M. Amirova ²

Annotatsiya:

Mazkur maqola frazeologiyaning ingliz tilidagi xususiyatlarini, uning tilshunoslikdagi ahamiyatini va leksikologiya sohasidagi o'rni haqida ma'lumot beradi. Frazeologiya – bu tilshunoslikning alohida bo'limi bo'lib, u ko'chma ma'no bilan bog'liq turg'un iboralar va birikmalarni o'rganadi. Maqolada frazeologizmning o'ziga xos xususiyatlari, ingliz tilidagi frazeologik birliklarning sinonimik munosabatlari va ularni tarjima qilishdagi qiyinchiliklar muhokama qilinadi. Shuningdek, frazeologik birliklarning xalq donoligi va tilga ta'siri, ularning o'ziga xos madaniy va lingvistik ahamiyati ta'kidlanadi. Bunga misol sifatida ingliz tilidagi frazeologik iboralar, maqollar va matallar keltiriladi. Maqola shuningdek, frazeologiyaning tilshunoslik sohasidagi rivoji va o'ziga xos xususiyatlari haqida ham so'z yuritadi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, ko'chma ma'no, frazeologik birliklar, tarjima qiyinchiliklari, madaniy ahamiyat, lingvistik rivojlanish.

Frazeologiya tilshunoslikning, ya'ni leksikologiyaning alohida bir bo'limi hisoblanib, ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalar, iboralar ushbu sohaning tadqiqot obyekti hisoblanadi. "Frazeologiya" so'zi grekcha "pharsis" fraza, ifoda "logos" ta'limot degan ma'noni anglatadi, uning tadqiqot doirasiga faqat ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalar kiritiladi. Ushbu sohaning e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan birligi bu frazeologizmlar ya'ni turg'un birikmalar hisoblanadi.

Frazeologik birliklar tilning lug'at tarkibini tashkil qiluvchi, mazmunan bitta so'zga teng birliklar bo'lgani uchun ko'p yillar davomida leksikologiya tarkibida o'rganilib kelingan. Ammo shuni alohida ta'kidlash lozimki, frazeologik birliklarning so'zga ekvivalentligi alohida tahlil qilinishi lozim bo'lgan masalalardandir. Sharl Balli ta'limotiga binoan frazeologik birliklarning eng muhim belgisi yagona bir so'z bilan sinonimik munosabatga kirisha olish, olmasligidadir. Bunday so'zni Sharl Balli so'z-identifikator deb atagan va bunday o'zgarishlarni frazeologik birliklarning ichki yaxlitgi belgisi sifatida talqin qilgan³.

Ammo buyuk tilshunosning bunday qarashlariga to'g'ri kelmaydigan holatlar ham til tizimida kuzatiladi. Masalan, ingliz tilida juda ko'p frazeologik birliklarning so'z-identifikatorlari mavjud emas, ya'ni ularni ma'nosini yagona bir so'z bilan ifodalashning iloji yo'q. Masalan:

drink like a fish= drink too much;
a hard nut to crack=a very difficult problem;
a small way=on a small scale;

Shuningdek, tilni frazeologik fondini tashkil qiluvchi maqol va matallar identifikatori faqatgina gaplar bo'lishi mumkinligini ham esdan chiqarmaslik lozim. Masalan, birds of a feather flock together — people who have the same interests, ideas; the blind leading the blind — a situation in which the person who is leading or advising others knows as little as they do⁴.

Frazeologiya boshqa tilshunoslik sohaslariga qaraganda ancha keyin rivojlanishni alohida bo'lim sifatida boshlagan bo'lsa-da, uning rivoji ancha uzoq yillarga borib taqaladi. Bugungi kunda esa frazeologiya ko'pchilik olimlarning va tilshunoslarning diqqat markazida va sohasi hisoblanib kelinmoqda. Har bir tilning frazeologiyasi o'ziga xos sanaladi. Zero, frazeologiya har bir til va millat bilan birga rivojlanadi va yuksaladi. Vaqt o'tishi bilan frazeologiya ham boyib boradi.

Frazeologik birliklar o'ziga xos xarakterga ega. Chunki bu birliklar xalq donoligi asosida yaratiladi. Ularning naqadar o'ylab fikrlab yaratilgani bu sohaga qiziqishning yanada oshishiga sabab bo'ladi. Umuman olganda, frazeologiya o'ziga xos soha. Masalan, "torvuzi qo'ltig'idan tushmoq" frazeologizmi "xafa" degan ma'noni anglatadi. Ushbu birikmaning sinonimi sifatida "suvga tushgan mushukdek" iborasini ham ishlatish mumkin. Birgina xafa so'zini oddiygina qilib aytish ham mumkin. Lekin, nutq jozibadorligini oshirish, rang-barang qilish uchun eng munosib vosita frazeologik birliklar hisoblanadi.

¹ Ibragimova Lola Asatullo qizi, SamDCHTI Ikkinchi chet tillar kafedrasini o'qituvchisi

² Amirova Maknuna Azizovna, SamDCHTI talabasi

³ Sharl Balli. *Precis de stylistique*.- Geneve, 1905. P.16.

⁴ Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка.- М.:, 1957. 16 с.

Bugungi kunda frazeologizmlar tarjimasini ham alohida tarjimonlar guruhini jalb qilishga ulguram. Frazeologik birliklar har bir xalq, har bir tilda mavjud bo'lishiga qaramay, ular bir-biridan juda ham katta farq qiladi. Shuning uchun ham ularni tarjima qilish davomida qator qiyinchiliklar yuzaga keladi va tarjimondan alohida e'tiborni talab qiladi.

Shunday qilib, frazeologiya barcha tillarda mavjud bo'lgan tilshunoslik sohasi sanaladi va har bir tilning frazeologiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir barqaror birikmaning o'z qo'llanilish doirasi va xususiyatiga ega. Bir tilda mavjud bo'lgan birlik ikkinchi tilda umuman mavjud bo'lmasligi ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. *Sharl Balli. Precis de stylistique.- Geneve, 1905. P.16.*
- [2]. *Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка.– М.;, 1957. 16 с.*
- [3]. *Саломов Г.Т. Лексико-фразеологические вопросы художественного перевода.Ташкент. 1964. 316.*
- [4]. *Саломов Ф. Тил ва таржима . Тошкент, Фан, 1966. 256 б.*
- [5]. *<https://audiobook.uz/blogs/news/frazeologik-iboralar-va-ularga-misollar>*